

TASHBEH JILOSI

Hilola Raimova

FarDU doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq mumtoz adabiyotida an'anaga aylangan o'xshatishlar haqida so'z boradi. Shuningdek, Qo'qon adabiy muhitining asoschisi Umarxon Amiriy tomonidan mevalar vositasida yaratilgan betakror tashbehtar haqida so'z boradi. Shoirning o'ziga xos yaratishlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: she'riyat, qofiya, badiiylilik ilmi, she'riy san'atlar, tashbeh, istiora, tanosub.

Mumtoz she'riyat o'zining uzoq yillik tarixi davomida o'z jozibasi, sir-sinoatga to'laligi bilan barchani hayratga solib kelganligi sir emas. Buning sabablari uning alohida o'zigagina xos jihatlariga borib taqaladi. Badiiy adabiyotning keng tarqalgan shakli bo'lgan she'riyatda o'tmish davrlaridayoq "Ahsanahu akzabahu", ya'ni "Eng yashi she'r – eng yolg'on she'r" degan naql yurgani ham e'tiborga molik.[1,6] Bu hikmat she'riyatning shakliga ham, mazmuniga ham dahldor bo'lib, mazmunda mubolag'aviylilikning yetakchilik kasb etishi, shaklda esa jimjimadorlikka va ta'sirchanlikning turli ko'rinishlarini istifoda etilishiga moyilligi va molikligi, to'g'rirog'i, shunga izn berilganidandir. Ya'ni har bir ijodkor she'rning go'zalligini ta'minlash maqsadida bir-biridan betakror o'xshatishlar, bo'rttirishlash qilganlarki, ularning hech biri ikkinchisini also takrorlamaydi.

Mumtoz adabiyotimiz o'zining serjiloligi-yu, ma'no qirralarining bisyorligi bilan hamisha o'rganishni talab etib kelayotir. Jumladan, g'azal janrining asosiy timsollaridan biri bo'lgan mashuqaning yuzi, ko'zi, qoshi, kipriklari, lablari, yonoqlari, qo'yinki, har bir azosi turli jonli va jonsiz narsalarga, ya'ni ma'shuqaning yuzi to'lin oy va quyoshga; qoshi kamonga, yangi chiqqan yarim oyga; ko'zlari nargiz guliga, jallodga; kipriklari nayzaga, xanjarga, sipohlarga; lablari la'lga, yoqutga, sochlari qoralikda tunga; bo'yi esa sarv daraxtiga qiyoslanganki, bu borada har bir ijodkor o'ziga xos o'xshatishlarni ham qo'llagan.

Chunonchi, mavlono Lutfiy bir baytida yorning yuzini Qur'oni karimga mengzaydi:

Xat qildi yuzing mus'hafidin husn rivoyat,

Ul mus'haf uza xatting erur husnunga oyat.[2,29]

Ushbu baytda Lutfiy yorning yuzini Qur'oni karimga mengzash bilan bir qatorda uning labi ustidagi mayin tuklarini oyatlarga qiyos qilib o'ziga xos betakror tashbeh yaratgan.

G'azal mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy esa yorning yuzini, bir g'azalida, quyoshga o'xshatadi:

Ul quyosh hajrinda qo'rqarmen falakni o'rtagay,

Har sharorekim, bo'lur bu o'tlug' afg'ondin judo.[3,225]

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Ya'ni, bu yerda oshiq tilidan ul quyosh yuzli yorim hijronida chekkan ohlarimdan sachragan har bir uchqun falakni o'rtab yuboradi, deb qo'rqayapman deydi. Hijronda qolgan oshiq o'zining ahvolini bayon qilar ekan, chekayotgan azobi gulistondan ayri qolgan bulbuldan necha marotaba ortiqroq va og'irroq ekanligini ifodalash uchun mubolag'ali tasvirni qalamga oladi. Hijronzada oshiqning o'tli ohidan sachragan bir uchqun falakni kuydirgudek, chunki tal'ati quyoshga o'xshatilgan yorning go'zalligi va tengsizligi ham shunga munosib ravishda betakror.

Yoki, Alisher Navoiy yana bir g'azalida yorning kipriklarini tasvir obyekti qilib oladi:

Vahki, har kiprigi bir nishtar erur zahrolud,

Garchi bor ul iki nargisda shakarxob to'la.[3,193]

Kipriklarni aynan nishtarga o'xshatilishi, uning oshiq qalbini zaharlashi Navoiy talqinida o'zgacha bir tus olgan. Yana bir baytida hazrat Navoiy yorning butun go'zalliklarni o'zida jam qilgan yuzini ta'riflar ekan, shunday yozadi:

Qosh-u ko'zingni munajjim chunki ko'rdi beniqob,

Dedi: ko'rkim Qavs burjidan tug'ubtur oftob.[3,248]

Ya'ni Qavs burjida yangi oftob tug'ilibdi deydi. Bu burj vakillari husniga bino qo'ygan, chiroyi bilan maqtanadigan insonlar hisoblanishini inobatga olsak, baytdagi ma'shuqa ham chiroyiga bino qo'yish barobarida, oftobdek nur sohib yorini kuydurish uchun astoydil bel bog'lagan.

Mumtoz adabiyotda ma'shuqaga berilgan an'anaviy ta'riflardan yana biri uning qomatini tik o'suvchi sarv daraxtiga o'xshatishdir. Bu an'anani shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ham davom ettirib shunday yozadi:

Ey yuzi nasrin, qomati shamshod,

Necha qilursen jonima bedod.[4,13]

Ya'ni baytda Bobur yorga murojaat qilib, ey yuzlari oq guldek go'zal, qomati shamshoddek tik bo'lgan yorim, nechun men oshig'ing joniga buncha azob berasan, shuncha zulmning boisi ne, deya zorlanadi. Bunday yor yuzini gulga, qomatini esa shamshodga va sarvga o'xshatish klassik adabiyot an'anasi hisoblanishi barchaga ma'lum.

Shoirlarning o'z topilmalari fondini boyitgan o'xshatishlar esa mana shu an'analarni yangilagan yaratiqdirlar. Bunday yaratiqalar Amiriyda ham talaygina.

Qo'qon adabiy muhitining asoschisi Amiriy ham bu borada qator o'ziga xos o'xshatishlarni qo'llaganki, bularni hech ikkilanmasdan, amiriyona tashbehtar deyish mumkin. Amiriy ijodini kuzatar ekanmiz, uning yor yuzi, ko'zi, kipriklari, qoshi-yu lablarini mumtoz adabiyotdagi an'anaviy tashbehtlardan foydalanib go'zal o'xshatishlar qilish barobarida o'ziga xos yangi topilmalar qilganligiga ham guvoh bo'lamiz.

Jonu dil Ka'bayi ko'yung sari bog'lar ehrom,

Oy yuzing qibla, tavofi sari ko'yung Arafot.[5,65]

Ushbu baytda oshiq ma'shuqasini Ka'baga qiyoslab, vasl umidida jon-u dilim ehrom bog'lamoqda, deyish barobarida yorning yuzini qiblaga o'xshatib unga qadar Arafot tog'i zarurligini ta'kidlaydi. E'tiborlisi shuki, shoir ushbu baytda yorning yuzini o'sha hamma talpinadigan, intiladigan, butun umr borishni orzu ilib o'tadigan Baytullohga

qiyoslaydi. Bundan uning ma'shuqasi hamma uchun orzu, butun insoniyat unga yetishish umidida yashaydi degan ma'no kelib chiqadi. Demak, ushbu bayt ilohiylik kasb etmoqda. Bu o'rinda, ma'shuqaning yuzini qiblaga mengzash Amiriy yangilagan tashbehlardan hisoblanadi. Yuqorida ko'rdikki, Lutfiy ma'shuqa yuzini Qur'oni karimga qiyoslaydi. Amiriy yana bir baytida yor sochlarini ajdarhoga o'xshatganligini ko'rishimiz mumkin:

Gul yuzi uzra mutarro sochi pechu ham tushub,
Ajdaho zulfini jodu ko'zlar afsun ayladi.[5,323]

Bu yerda shoir yor go'zalligini vasf etar ekan gul yuzli yorimning husn xazinasini uzun sochlari ajdarhodek o'rab olib qo'riqlamoqda, jodu ko'zlari esa oshiqclarini afsun qilmoqda, sehlamoqda degan ma'no kelib chiqadi. Bu o'rinda xazinani hamisha ajdaholar qo'riqlaganligiga ham ishora borligini sezish mumkin. Amiriy ijodida uchragan bunday o'xshatish, shubxasiz, Navoiy sarchashmasidan suv ichgan.

Amiriy ijodini kuzatish asnosida shunga amin bo'ldimki, u boshqa ijodkorlardan farqli o'laroq, mevalardan ham tashbeh unsurlari sifatida mohirlik bilan foydalangan ekan. Quyida ana shunday mevalardan tizilgan amiriyona tashbehlarga diqqat qaratamiz.

Jinon bog'iga kirsang, hur ila g'ilmon ko'rib aytur:

"Iki noring bila sebi zanaxdoning'a sallamno!" [5,44]

Bu yerda "seb" - olma, "zanaxdon" - baqbaqa, "sallamno" - ofarin, tan berish, qoyil qolish ma'nolarini beradi. Bu bayt orqali shoir yorning ikki qizil yuzi, yonoqlarini anorga, nafis baqbaqasini esa olmaga qiyos etar ekan, agar sen jannat bog'iga kirgudek bo'lsang seni hur-u g'ilmonlar ko'rib ikki anoring-u olmadek baqbaqangning go'zalligiga hayron qolib, ofarinlar aytadi, deb lutf ko'rsatadi.

Sarv qadding uzra la'lu orazing hayroniman,

Turfa naxledur aning shaftoli birla nori xo'b[5,61]

Ushbu baytda esa Amiriy yorini ta'riflar ekan unga juda yuksak baho beradi, yaratgan yoriga in'om etgan bunday bejirimlikdan hayron ekanligini ma'lum qiladi. Tik qomating va yoqutdek yuzing oldida lol-u hayronman deb, ikkinchi misrada yorining go'zalligini turli daraxtlar-u o'simliklardan ham afzal qo'yib, uning yuzi va lablari ulardan ham a'lo deya ta'riflaydi. Ushbu baytda tashbeh bilan bir qatorda tanosub va istiora san'atlaridan ham mohirlik bilan foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz.

Eltti ko'nglimni turunji g'abg'abi osib ila,

Ochsa gar ruxsorini ul gul olur jonim, anor. [5, 104]

"Turunj" - limon, "G'abg'ab" - baqbaqa degani. Endi bu baytda shoir ma'shuqasining yuzini limonga o'xshatar ekan, uning dardga darmon, shifobaxshlik xususiyatini asos qilib oladi. Men yorimning yuzini orzusi ila ko'nglimni ko'taraman, mabodoki, u yuzini ochadigan bo'lsa mening jonimni oladi, bisotimdagi jonimni ham unga tortiq qilaman, deya ruhini qafasdan qutqaruvchi xaloskorga qiyoslaydi ma'shuqasini.

Yana bir g'azalida shoir mevalarning xususiyatidan ustalik bilan foydalanib go'zal o'xshatishlar qiladi:

Husni bog'i mevasig'a yor noz aylab, dedi:

"Lablarim anjirdur, sebi zanaxdonim - anor".[5, 105]

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Baytda endi fikr mashuqa nomidan ketadi, u o'z husnini maqtab aytadi:mening lablarim anjir, iyak va baqbaqam esa anordek qip-qizildir. Yor ushbu so'zlarni shunchaki maqtanish uchun aytmaydi, balki noz bilan, hatto husn bog'ining mevasidan ham a'lo ekanligini ta'kidlaydi. Bu yerda yorning lablarini anjirga qiyos qilar ekan, mevalar ichida anjirning juda shirin, hatto tilni olgudek darajada o'tkir ekanlik xususiyatlarini yorning labidan topadi. Va shu jihati bilan bu o'ziga xos tashbeh originallik kasb etadi. Mana shu g'azalning keyingi misralarida ham Amiriy mevalardan betakror tashbehli tasbeh tizadi:

Bog' gul birla anorig'a agar noz aylasa,

Yor ayur: "Orazim – gul, la'li handonim - anor".

Lablari shaftolisig'a zorman, ey bog'bon,

To'kmasun behuda istig'no bila qonim, anor. [5,105]

Ushbu misralar orqali shoir yor yuzini gulga qiyos qilish bilan bir qatorda lablarini shaftoliga hamda anorga o'xshatadi. Bunda shaftolining juda totli bo'lishi, shirali bo'lishi lab uchun asos qilib olingan bo'lsa, qizillik jihatidan anorga o'xshatadi. Shuningdek, baytda tashxis va istora san'atlarini ham uchratish mumkin.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, shoir baytlarini alohida – alohida badiiy san'atlar nuqtai nazaridan olib o'rganish deyarli mumkin emas. Chunki ularda kamida ikki va yoki uch san'at birgalikda keladi. Bu katta iste'dod egalari xos xususiyat. Amiriy she'rlarining rang-barang san'atlarga boyligi uning betakror iste'dod sohibi ekanligini ko'rsatadi. [6,97]

Yuzung birla labingg'a bog' aro tashbih etib bo'lmas,

Erur guldin musafforoq, shirinrog' rutabdindur. [5,114]

Ushbu bayt ma'shuqa husnining ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, oshiq yorning chiroyni nimaga o'xshatishni bilmay, uni husn-u latofatda tengsiz ekanligini madh etadi. Ma'shuqaga murojaat etib, sening go'zalligingga butun bog' ichida hech narsa teng kelolmaydi, bog'dagi hech bir go'zallik sening husning bilan tenglasholmaydi, deydi. Oshiq agar yorning yuzini gulga qiyoslay desa, ma'shuqaning jamoli guldan ham musafforoq, labini biror narsaga tashbeh etay desa ma'shuqaning labi hatto xurmodan ham shirinroq ekanligini aytadi. Bu o'rinda Amiriy yana bir mevani tashbeh obyektini qilib olganligini ko'rishimiz mumkin.

La'li unnobing uza xoling erurmi yo magar,

Bol istab qo'ndi ul shakkar labing uzra magas? [5,129]

Bu yerda "Unnob" – xurmo degani. Oshiq mashuqasiga qarab, yoqutdek qizil labing ustida turgan xolmi, yoki shakar, bol yig'ish maqsadida qo'ngan arimi? Deya ma'shuqaga murojaat qilib tashbeh bilan bir qatorda tajohili orifona san'atidan ham ustalik bilan foydalanadi. Amiriy ma'shuqa labini shirinlik belgisi ila xurmoga o'xshatar ekan, bu o'rinda yana bir mevalar tashbehidan iborat tasbehga tosh qadagan hisoblanadi.

Nazokat mahzani, jon gulshanisan,

Labing yoqut erur, rummondur oraz. [5,144]

Ushbu baytda esa, Amiriy ma'shuqani "nazokat mahzani", "jon gulshani" deya lutf etadi. Yorning labini yoqut toshga, albatta, qizillik belgisi bilan, yuzini esa anorga o'xshatadi. Bunda birinchi navbatda, yorning yonog'idagi rang o'xshatilgan bo'lsa,

navbatdagi belgisi anorning shifobaxshlik xususiyati bilan aloqador. Ma'shuqa oshiqqa bir bora mehr nigohi ila boqsa, oshiqning dardiga malham bo'ladi. Aynan shu xususiyati bilan anor tashbeh asosi qilib tanlangan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tabibo, sharbati unnob icharga bermagil pandim,
Labidin talxu shirin so'z erur doruyi gulqandim.[5,243]

Mazkur g'azal Amiriyning turkiy devoniga kirgan 99 ta radifsiz g'azallardan biri bo'lib, u ham an'anaviy ma'shuqa ta'rifi bilan boshlanadi. Biz yuqorida keltirganimiz g'azalning birinchi bayti hisoblanadi. Bayt murojaat yo'sini bilan boshlanadi. Bu yerda "unnob" "xurmo" degani. Oshiq tabibga murojaat qilib, mening dardimga xurmo sharbatidan shifobaxsh darmondori bermagil, chunki menga yorimning la'ldek lablari-yu undan chiqadigan shirin so'zdan ortiq davo, shifo yo'qdir, deydi. Oshiq uchun ma'shuqasining bitta shirin so'zi nafaqat dori, balki gulqand hamdir. Chin oshiq uchun yori tomonidan beriladigan har bir narsa, hatto u dori yoki zahar bo'lsa ham, gulqand, ya'ni shirin qanddek tuyuladi.

Amiriy ijodida muxammas janri ham o'z o'rniga ega, shoir ushbu janrda ham barakali ijod qilgan. Jumladan. Shoirning Mavlono Nobiy g'azaliga yozgan "Keldi" radifli muxammasida ham ma'shuqaning labini xurmoga o'xshatib, mevalarni yana bir bor tasvir obyekti qilib olganligini ko'rishimiz mumkin:

Tugunlar soldi jonlar rishtasig'a zulfi purtobi,
Amiring jismiga jon berdi shakarqand unnobi,
Ilinturdi yuzin ko'rgon mahalda zulfi qullobi,
No'la bog'i suxanda bulbul o'lsam shavq ila, Nobiy,
Ki, taklifi g'azal og'oyini neko'kordin keldi.

Bu yerda "unnob"- "xurmo", "Qullob" – "qarmoq", "Neko'rar" – "yaxshi inson" ma'nolarida qo'llangan.

Amiriyning badiiy mahorati hatto mana shunday mevalardan va ularnig har bir belgisidan bir-biridan betakror tashbehlar yaratganida yaqqol namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, shoir g'azallaridagi o'xshatishlarda yorning har bir azosi eng sara mevalarga o'xshatilganligiga guvoh bo'ldik. Mevalar vositasida yorning tashqi belgilari qiyoslangan bo'lsa, ularning ichki, tami bilan bog'liq xususiyatlari ma'shuqaning ichki dunyosini, qalb kechinmalarini ochib beruvchi kalit vazifasini bajargan. Ba'zi o'xshatishlar hatto shu darajada mukammallashtirilganki, bunday to'kislik bandasiga xos sifat emasligiga ishonchingiz komil bo'ladi, aynan mana shunday g'azallarda ma'shuqaga bo'lgan ishq vositasida Yaratganga muhabbat tasvirlanayotganligini sezish qiyin emas.

Tushdi devona ko'ngul sunbuli purtobing aro,
Notavondir bu salosilda anga tob kerak.

Baytning zohiriy ma'nosi: „Devona ko'nglim jingalak soching aro tushdi, xuddiki, zanjirlar bilan kishanlandi. Ko'nglim bu zanjirlardan chiqishga ojiz, kuchsiz, undan chiqish uchun menga kuch –quvvat kerak“. Endi baytni irfoniyl ma'nosiga nazar tashlasak. Birinchi misrada qo'llanilgan „sunbuli purtob“ (jingalak soch)ni tasavvuf bosqichlariga ko'tariladigan zinaga o'xshatsak bo'ladi, ya'ni SHARIAT, TARIQAT, MA'RIFAT va HAQIQATga shu zinalar orqali chiqiladi.

Shulardan kelib chiqsak baytning botinida mana bunday mazmun zuhur bo'ladi:
"Ko'nglim HAQIQAT(Alloh vasli)ga erishish uchun bir qancha sinov, bosqichlardan o'tishi kerak, Mening murodimni hosil bo'lishi uchun iroda va kuch-quvvat ber".[7,169]

Amiriy ijodini, uning beqiyos adabiy merosini har qancha tahlil qilsak ham poyoniga yetib bo'lmaydi. Uning o'ziga xos mevalardan tashbehlar yaratishi, yoki ishqi ilohiyni tarannum etishi, shuningdek, hatto irfoniy yo'nalishda yozilgan asarlari – ularning bari har bir o'quvchining qalbidan chuqur o'rin olib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Siddiqov Mo'minjon. Zakovat adabiyoti. "Bayoz" nashriyoti. Toshkent – 2014. 6-bet
2. Lutfiy. Sensan sevarim. O'zbek adabiyoti bo'stoni. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent – 1987. 29-bet
3. Davlatov Olimjon. Ma'nolar xazinasi. Alisher Navoiy g'azallariga sharxlar. Birinchi kitob. "Tamaddun" Toshkent – 2021 Betlari:193.225.248
4. Bobur. Tanlangan asarlar. "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent – 1976. 13-bet
5. Amiriy. Devon 1-qism. Z.Qobilova, O.Davlatov. "Tamaddun" nashriyoti 2017.
6. Qobilova Zebaxon. Amiriy she'riyati. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti. Toshkent – 2010
7. Sayfullayeva Ulbeka Quvondiq qizi. Amiriy va uning irfoniy olamiga bir nazar. Involta ilmiy jurnali. 06-2022

